


QASHQADARYO VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKIOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT

*2026- yil 1- fevral holatiga ko'ra
(fermer va dehqon xo'jaliklarisiz)*

- I. Korxona va tashkilotlarning soni
- II. Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ma'lumotlar
- III. Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar
- IV. Korxona va tashkilotlar demografiyasiga oid metama'lumotlar va tushunchalar

I. Korxona va tashkilotlarning soni.

2026- yil 1- fevral holatiga ko'ra, viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (dehqon va fermer xo'jaliklari bundan mustasno) 30 884 tani tashkil etadi, shundan 25 490 tasi yoki 82,5 foizi kichik korxona va mikrofirmalardir. 2025- yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 110,4 foizni, jumladan, kichik biznes va mikrofirmalarda – 112,1 foizni tashkil etdi.



Soni



O'sish sur'ati

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (birlikda).

Yillar	Korxona va tashkilotlar	shundan:	
		Tadbirkorlik subyektlari	shundan:
			Kichik biznes subyektlari
2026	30 884	25 681	25 490
2025	27 969	22 889	22 736
2024	32 691	27 757	27 596
2023	40 604	37 720	35 450
2022	36 381	31 571	31 385

Hududlar bo'yicha eng ko'p faol korxona va tashkilotlar Qarshi shahri – 20,6 foiz, Qarshi – 7,7 foiz, Kitob – 7,0 foiz va Koson – 6,9 foiz, Yakkabog' – 6,9 foiz tumanlarda faoliyat ko'rsatmoqda.

Tadbirkorlik va kichik biznes subyektlarining umumiy sonidagi salmoqli ulushi Shahrisabz shahri – 86,0 foiz va 85,5 foiz, Qarshi – 85,6 va 85,1 foiz, Qarshi shahri – 85,5 foiz va 84,2 foiz hamda Nishon – 84,1 foiz va 83,8 foiz tumanlarga to'g'ri keldi.

Hududlar	Korxona va tashkilotlar	shundan:	
		Tadbirkorlik subyektlari	shundan:
			Kichik biznes subyektlari
G'uzor	1 437	1 160	1 146
Dehqonobod	1 238	962	957
Qamashi	1 892	1 576	1 571
Qarshi	2 309	1 977	1 964
Koson	2 139	1 760	1 745
Kitob	2 181	1 797	1 789
Mirishkor	1 085	879	877
Muborak	1 006	833	818
Nishon	1 520	1 278	1 274
Kasbi	1 372	1 137	1 132
Ko'kdala	1 366	1 123	1 121
Chiroqchi	1 693	1 363	1 357
Shahrisabz	1 592	1 272	1 267
Yakkabog'	2 118	1 771	1 764
Qarshi shahri	6 193	5 294	5 217
Shahrisabz shahri	1 743	1 499	1 491

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:


[Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)

[Faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)

Korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ma'lumotlar.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat yuritayotgan korxona va tashkilotlarning (tadbirkorlik subyektlari va kichik biznes subyektlarining) eng ko'p qismi "Savdo" tarmog'ida qolmoqda, ularning ulushi 2026- yil 1- fevral holatiga 31,4 foizni (37,7 foiz va 37,9 foiz) tashkil etdi.



Korxona va tashkilotlar


Ikkinchi o'rinda "Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi" 15,1 % (18,0 % va 18,1 %), uchinchi o'rinda "Sanoat" 9,6 % (11,5 % va 11,4 %).

Birgalikda ushbu uch turdagi faoliyat ularning umumiy sonining 50 % dan ortig'ini tashkil qiladi.

Iqtisodiy faoliyat turlari	Korxona va tashkilotlar	shundan:	
		Tadbirkorlik subyektlari	shundan:
			Kichik biznes subyektlari
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	4 661	4 631	4 624
Sanoat	2 969	2 962	2 918
Qurilish	2 122	2 100	2 072
Savdo	9 690	9 688	9 651
Tashish va saqlash	805	799	790
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1 688	1 678	1 672
Axborot va aloqa	430	423	423
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	1 075	718	714
Boshqa turlar	7 444	2 682	2 626

II. Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ma'lumotlar.

2026- yil 1- fevral holatiga ko'ra, 25 681 ta faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalaridan 16 492 tasi mas'uliyati cheklangan jamiyatlarni tashkil etib, ular tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha korxonalar orasida birinchi o'rinni egallab turibdi.



Tadbirkorlik subyektlari


Shundan kelib chiqib, MChJlar mamlakatimizda biznes yuritishning eng keng tarqalgan shakli degan xulosaga kelishimiz mumkin.

Tashkiliy-huquqiy shakli	Tadbirkorlik subyektlari soni (birlikda)	Tadbirkorlik subyektlarining jamiga nisbatan ulushi (foizda)
Mas'uliyati cheklangan jamiyat	16 492	64,2
Xususiy korxonalar	5 864	22,8
Oilaviy korxonalar	2 933	11,4
Aksiyadorlik jamiyati	29	0,1
Boshqalar	363	1,5

III. Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar.

O'zbekistonning yangi tashqi siyosatini asosiy xususiyatlari bu ochiqlik, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga e'tibor berish, qo'shni davlatlar bilan yaxshi qo'shnichilik munosabatlarini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni beg'araz asosda kengaytirishdir.

Shuningdek, chet el investitsiyalari ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan 167 ta korxonalardan 82 tasi qo'shma korxonalar va 85 tasi xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keldi.



Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxona va tashkilotlar

2026- yil 1- fevral holatiga ko'ra xorijiy investitsiyalar ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning soni 167 ta bo'lib, Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p faol korxonalar, sanoat sohasida 71 tani, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi sohasida 34 tani va savdo sohasida 31 tani tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari	Jami:	shundan:	
		Qo'shma korxona	Xorijiy korxona
Jami:	167	82	85
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	34	13	21
Sanoat	71	30	41
Qurilish	9	6	3
Savdo	31	18	13
Tashish va saqlash	3	1	2
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	4	4	0
Axborot va aloqa	1	0	1
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	3	3	0
Boshqa turlar	11	7	4

Ayrim davlatlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar.

Viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxona va tashkilotlar tahlil qilinganda, yetakchi o'rinni 51 ta korxona bilan Xitoy davlati egalladi. Bu viloyatimizdagi xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 30,5 foizini tashkil etdi. Viloyat iqtisodiyotiga o'z kapitalini kiritib hissasini qo'shaytgan mamlakatlar orasida Rossiya Federatsiyasi (14,4 %), Turkiya (11,4 %), Avg'oniston (7,2 %) va Janubiy Koreya (5,4 %) ham alohida o'rin egallaydi.

Davlatlar	Jami:	shundan:	
		Qo'shma korxona	Xorijiy korxona
Jami:	167	82	85
Xitoy	51	18	33
Rossiya	24	15	9
Turkiya	19	8	11
Afg'oniston	12	2	10
Janubiy Koreya	9	6	3
Eron	5	4	1
Qozog'iston	5	4	1
AQSH	5	2	3
Buyuk Britaniya	4	3	1
SHveytsariya	4	4	-
Niderlandiya	4	-	4
BAA	4	3	1
Germaniya	3	2	1
Tojikiston	2	1	1
Qirg'iz Respublikasi	2	1	1
Pokiston	2	-	2
Boshqa Davlatlar	12	9	3

IV. Korxona va tashkilotlar demografiyasiga oid metama'lumotlar va tushunchalar.

Registrlarni yuritish bo'yicha statistik faoliyatni amalga oshirish uchun asos bo'lib Vazirlar Mahkamasining 2022- yil 28-sentabrdagi "Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registrini yuritish va uning asosida davlat xizmatini ko'rsatishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 539- son qaroriga muvofiq Korxonalar va tashkilotlarning ma'lumotlari statistik tasniflagichlarga asosan shakllantiriladi.

Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri – real vaqt rejimida yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan axborot-ma'lumotnoma tusidagi avtomatlashtirilgan tizim hisoblanib, yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi. Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Davlat xizmatlari markazi ma'lumotlar bazasi asosida **2026- yil 1- fevral** holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.

Metama'lumot uchun havolalar:

[Metama'lumot Korxonalar va tashkilotlar soni](#)

[Glossariy](#)

[Statistik klassifikatsiyalar](#)

Mavzuga doir ko'rsatkichlar::

[Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan xususiy korxonalar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyati soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni \(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, oylik\)](#)

[Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Sanoat yo'nalishida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Qurilish faoliyati bilan shug'ullanuvchi yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Savdo sohasida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Tashish va saqlash xizmatlari sohasida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Axborot va aloqa sohasida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

Tayyorlash uchun mas'ul:
Raqamlashtirish va statistik
registrlarni yuritish bo'limi

Ijrochi:
X. Pardayev
75 221-17-93 (7060)

Maznil:
180100, Qarshi shahri.,
Mustaqillik ko'chasi, 2 B-uy
